URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 6 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK: 616.36-008.811.6

# ABDOMINAL SEMIZLIKDA SURUNKALI TOSHSIZ XOLETSITIT KASALLIGINI KECHISHI VA BEMOR HAYOTIY SIFAT KO’RSAKICHLARIGA TA’SIRI



***Yuldashov J.A., Urganch davlat tibbiyot instituti, Oilaviy shifokor tayyorlash kafedrasi PhD, katta o‘qituvchisi***
jasurbek.yuldashov.86@mail.ru
***ORCID:*** https://orcid.org/0009-0005-5454-5174



***Matrasulova D.M., Urganch davlat tibbiyot instituti, Oilaviy shifokor tayyorlash kafedrasi assistenti***
matrasulova.dildora@mail.ru
***ORCID:*** https://orcid.org/0009-0002-3706-0050



***Quromboyev B.Sh., Ichki kasalliklar, nefrologiya, gemodializ va reabilitologiya kafedrasi magistranti***
boris5139994@gmail.com
***ORCID:*** https://orcid.org/0009-0004-1602-969X



***Jumaniyozov A.A., Ichki kasalliklar, nefrologiya, gemodializ va reabilitologiya kafedrasi magistranti***
abrorjumaniyozov122@gmail.com
***ORCID:*** https://orcid.org/0009-0003-7926-3275

URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 6 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

**Annotatsiya.** Dolzarbligi. Abdominal semizlik fonida surunkali toshsiz xoletsistit o't yo'llari motorikasi buzilishini, dispepsiyani va og'riq davomiyligini kuchaytiradi. Bunday bemorlarda hayot sifati hamda klinik va psixologik holatni o'rganish dolzarb hisoblanadi. Maqsad. Kasallikning kechish va davolash xususiyatlarini, klinik ko'rinishini, biliar trakt holatini hamda hayot sifati ko'rsatkichlarini o'rganish. Material va usullar. Tadqiqotga 45–65 yoshdagi (o'rtacha yoshi 49±1,3) jami 70 nafar ayol jalb qilindi. 1-guruhni abdominal semizliksiz surunkali toshsiz xoletsistitli 25 nafar bemor, 2-guruhni abdominal semizlik fonida surunkali toshsiz xoletsistitli 25 nafar bemor tashkil etdi. Nazorat guruhiga jinsi va yoshi mos keluvchi, gepato-biliar tizim kasalliklari bo'lmagan 20 nafar shaxs kiritildi. Hayot sifati Nottingham Health Profile so'rovnomasi, shaxsiy tashvish darajasi Ch.D. Spilberger shkalasi, nevroz darajasi Xek va Xess testi yordamida baholandi. Xulosa. Abdominal semizlik hayot sifatining yomonlashuviga surunkali toshsiz xoletsistitning o'zidan keskin ko'proq ta'sir ko'rsatmadi, biroq xavotirlanish va nevrotizatsiya darajasining yuqori bo'lishiga zamin yaratdi. Shuning uchun har ikkala guruhdagi bemorlarni tibbiy reabilitatsiya majmuasiga, ayniqsa vazn ortiqchaligi kuzatilgan hollarda, psixologik skrining, maqsadli psixokorreksiya va hayot sifati ko'rsatkichlarini dinamik nazorat qilishni kiritish maqsadga muvofiq.

**Kalit so'zlar:** abdominal semizlik, surunkali toshsiz xoletsistit, hayot sifati, xavotirlanish, nevrotizatsiya, tibbiy reabilitatsiya.

## ТЕЧЕНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО БЕСКАМЕННОГО ХОЛЕЦИСТИТА ПРИ АДОМИНАЛЬНОМ ОЖИРЕНИИ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ

Юлдашов Ж.А., PhD, старший преподаватель кафедры подготовки семейных врачей, Ургенчский государственный медицинский институт
jasurbek.yuldashov.86@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-5454-5174
Матрасулова Д.М., ассистент кафедры подготовки семейных врачей, Ургенчский государственный медицинский институт
matrasulova.dildora@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-3706-0050
Куромбоев Б.Ш., магистрант кафедры внутренних болезней, нефрологии, гемодиализа и реабилитологии, Ургенчский государственный медицинский институт
boris5139994@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-1602-969X
Жуманиёзов А.А., магистрант кафедры внутренних болезней, нефрологии, гемодиализа и реабилитологии, Ургенчский государственный медицинский институт
abrorjumaniyozov122@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-7926-3275

**Аннотация.** Актуальность. Течение хронического бескаменного холецистита на фоне абдоминального ожирения усиливает нарушения моторики желчевыводящих путей, диспепсию и увеличивает продолжительность болевого синдрома. В связи с этим изучение качества жизни, клинического и психологического состояния таких пациентов является актуальным. Цель. Изучить особенности течения и лечения заболевания, его клиническую картину, состояние билиарного тракта и показатели качества жизни. Материал и методы. В исследование были включены 70 женщин в возрасте 45-65 лет (средний возраст 49±1,3 года). 1-ю группу составили 25 пациенток с хроническим бескаменным холециститом без абдоминального ожирения, 2-ю группу - 25 пациенток с хроническим бескаменным

холециститом на фоне абдоминального ожирения. Контрольную группу составили 20 человек, сопоставимых по полу и возрасту, без заболеваний гепатобилиарной системы. Качество жизни оценивали с помощью опросника Nottingham Health Profile, уровень личностной тревожности - по шкале Ч.Д. Спилбергера, уровень невроза-по тесту Хека-Хесса. Заключение. Абдоминальное ожирение не оказывало на ухудшение качества жизни заметно большего влияния, чем сам хронический бескаменный холецистит, однако способствовало более высокому уровню тревожности и невротизации. Поэтому в комплекс медицинской реабилитации пациентов обеих групп, особенно при избыточной массе тела, целесообразно включать обязательный психологический скрининг, целенаправленную психокоррекцию и динамический контроль показателей качества жизни.

**Ключевые слова:** абдоминальное ожирение, хронический бескаменный холецистит, качество жизни, тревожность, невротизация, медицинская реабилитация.

## THE COURSE OF CHRONIC ACALCULOUS CHOLECYSTITIS IN ADOMINAL OBESITY AND ITS IMPACT ON PATIENTS' QUALITY OF LIFE INDICATORS

Yuldashov J.A., PhD, Senior Lecturer, Department of Family Physician Training, Urgench State Medical Institute
jasurbek.yuldashov.86@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-5454-5174
Matrasulova D.M., Assistant, Department of Family Physician Training, Urgench State Medical Institute
matrasulova.dildora@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-3706-0050
Quromboyev B.Sh., Master's Student, Department of Internal Diseases, Nephrology, Hemodialysis and Rehabilitology, Urgench State Medical Institute
boris5139994@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-1602-969X
Jumaniyozov A.A., Master's Student, Department of Internal Diseases, Nephrology, Hemodialysis and Rehabilitology, Urgench State Medical Institute
abrorjumaniyozov122@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-7926-3275

**Annotation.** Relevance. Chronic acalculous cholecystitis in the setting of abdominal obesity aggravates biliary dysmotility, dyspepsia, and pain duration. Studying quality of life and the clinical and psychological status of such patients is therefore relevant. Aim. To study the course and treatment features of the disease, its clinical presentation, the state of the biliary tract, and quality of life indicators. Materials and methods. The study included 70 women aged 45-65 years (mean age 49±1.3). Group 1 consisted of 25 patients with chronic acalculous cholecystitis without abdominal obesity, and Group 2 of 25 patients with chronic acalculous cholecystitis and abdominal obesity. The control group comprised 20 age- and sex-matched individuals without hepatobiliary diseases. Quality of life was assessed with the Nottingham Health Profile, personal anxiety with the Spielberger scale, and the level of neurosis with the Heck-Hess test. Conclusion. Abdominal obesity did not worsen quality of life markedly more than chronic acalculous cholecystitis alone, but it contributed to higher levels of anxiety and neurotization. It is therefore advisable to include mandatory psychological screening, targeted psychocorrection, and dynamic monitoring of quality of life in the medical rehabilitation program for patients in both groups, especially those with excess body weight.

URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 6 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

**Keywords:** abdominal obesity, chronic acalculous cholecystitis, quality of life, anxiety, neurotization, medical rehabilitation.

**Dolzarbligi:** Abdominal semizlik fonida surunkali toshsiz xoletsistitning kechishi o‘t yo‘llari motorikasi buzilishini, dispepsiyani va og‘riq davomiyligini kuchaytiradi [1]. Abdominal semizlik bilan bog‘liq metabolik yukning ortishi xolesistokinin javobini susaytirib, ultratovush tekshiruvida o‘t qopi devorining qalinlashuviga va o‘t qopi diskineziyasiga olib keladi [2].

Abdominal semizlik va surunkali toshsiz xoletsistit o‘rtasidagi bog‘liqlik laboratoriya va ultratovush tekshiruvlari yordamida hozircha to‘liq o‘rganilmagan [3]. Xususan, klinik jihatdan ustunlikni belgilovchi birlamchi va yakuniy ko‘rsatkichlar hamda individual davolash yondashuvi bo‘yicha ma’lumotlar yetarli emas [4]. Shu bois abdominal semizlikka uchragan bemorlarda surunkali toshsiz xoletsistitning klinik-laborator kechishini va davolashga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish zarur [5]. Bemorlarni tekshirishda ultratovush tekshiruvi (UTT), biokimyoviy markerlar va simptomlar dinamikasini baholash lozim [6]. Adabiyotlarda o‘t-tosh kasalligi (O‘TK) bilan og‘rigan bemorlarning psixologik holatini o‘rganishga bag‘ishlangan bir nechta ishlargina mavjud [6, 7]. Tekshirilayotgan bemorlar guruhlarida psixologik-patogenetik bo‘g‘inlar yetarli darajada o‘rganilmagan, davolanishga rioya qilish va hayot sifatiga yetarlicha e’tibor berilmagan. Natijada abdominal semizlik fonida toshsiz xoletsistit bilan og‘rigan bemorlarda psixologik buzilishlar va hayot sifati yetarlicha baholanmaydi [8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, abdominal semizlik fonida surunkali toshsiz xoletsistit bilan og‘rigan bemorlarda hayot sifatini hamda klinik va psixologik holatni o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bemorlar psixologik xususiyatlarining muhim ahamiyatga ega ekani ma’lum, biroq bu omillarning biliar trakt holatiga ta’sir mexanizmlari qisman o‘rganilgan. Shu sababli ushbu ishda abdominal semizlik fonida surunkali toshsiz xoletsistit bilan og‘rigan bemorlarda davolanishga rioya qilishning ahamiyatini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik.

**Tadqiqotning maqsadi:** abdominal semizlikka uchragan 45–65 yoshdagi ayollarda surunkali toshsiz xoletsistit kechishi va davolashning o‘ziga xos xususiyatlarini, kasallikning klinik ko‘riishini, biliar trakt holatini hamda hayot sifati ko‘rsatkichlarini o‘rganish.

**Material va usullar:** Tadqiqot ishimizga Xorazm viloyati Urganch davlat tibbiyot instituti klinikasiga 2025-yildan 2026-yil sentyabr oyigacha murojaat qilgan hamda statsionarda davolangan, yoshi 45 dan 65 gacha bo‘lgan jami 70 nafar bemor ayollar jalb qilindi. Shundan asosiy 1-guruhga abdominal semizlikka uchramagan, ammo surunkali toshsiz xoletsistit bilan og‘rigan 25 nafar bemor kuzatuv ostiga olindi; 2-guruhga abdominal semizlikka ega, surunkali toshsiz xoletsistit tashxisi qo‘yilgan 25 nafar bemor kiritildi; nazorat guruhini esa jinsi va yoshi mos keluvchi, gepato-biliar tizim kasalliklari bo‘lmagan 20 nafar shaxs tashkil etdi. Tashxis qo‘yish va kasallikka olib kelgan sabab omillarini aniqlash uchun quyidagi klinik usullardan foydalanildi: shikoyatlarni to‘plash, kasallik anamnezi, hayot anamnezi, obyektiv tekshiruv vaqtida og‘riq, dispeptik va psixovegetativ sidromlarni baholash, ultratovush tekshiruvi, qonning biokimyoviy tahlillari, tana vazni indeksi va vistseral semizlik indeksini aniqlash. Hayot sifati Nottingham Health Profile so‘rovnomasi yordamida, shaxsiy tashvish darajasi Ch.D. Spilberger shkalasi, nevroz darajasi esa Xek va Xess testi bo‘yicha baholandi. Olingan ma’lumotlar Pentium-IV shaxsiy kompyuterida Microsoft Office Excel 2013 dasturiy ta’minoti asosida statistik jihatdan qayta ishlandi. Bunda o‘rtacha arifmetik qiymatlar hisoblanib, statistikaning an’anaviy variatsion parametrik va noparametrik usullaridan foydalanildi. Guruhlararo farqlarning ishonchliligi Styudent t-mezoni yordamida baholandi.

**Natijalar va tahlili:** Birinchi guruh abdominal semizlikka uchramagan surunkali toshsiz xoletsistit bilan kasallangan 25 nafar bemordan iborat bo‘lib, o‘rtacha yoshi 49±1,3 yoshni tashkil etdi. Ikkinchi guruh abdominal semizlikka uchragan surunkali toshsiz xoletsistit bilan og‘rigan bemorlardan iborat bo‘lib, o‘r

URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 6 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Tadqiqotga jalb qilingan 1- va 2-guruh bemorlarida hayot sifati nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada pasaygani aniqlandi. Umumiy ball nazorat guruhida 72,16±9,22 ni tashkil etgan bo‘lsa, 1-guruhda 202,14±9,56 ($p<0,001$), 2-guruhda esa 207,68±10,54 ($p<0,001$) bo‘lib, nazoratga nisbatan mos ravishda 2,8 va 2,9 marta oshgan. O’tkazilgan so’rovnomiz bo‘yicha ballning ortishi hayot sifati yomonlashganini bildiradi, shu sababli olingan natijalar ikkala guruh bemorlarida salomatlik bilan bog‘liq hayot sifati jiddiy pasayganini ko‘rsatdi.

1-jadval

**Abdominal semizlikka uchragan surunkali toshsiz xoletsistit va abdominal semizliksiz kechgan surunkali toshsiz xoletsistit bilan og‘rigan bemorlarning Nottingham Health Profile so‘rovnomasi natijalari**

| Tavsiflar | Nazorat, N=20 | 1-guruh, N=25 | 2-guruh, N=25 |
|---|---|---|---|
| Shijoatlilik | 11,37±5,31 | 46,79±5,31*** | 50,27±7,04*** |
| Og’riq sezgilar | 9,25±4,66 | 33,31±7,21** | 34,9±6,22*** |
| Emotsional xolat | 13,71±4,18 | 23,76±5,32* | 27,93±4,54* |
| Uyqu | 17,99±5,96 | 43,51±4,56** | 43,57±6,49** |
| Ijtimoiy izoliyasiya | 8,34±3,23 | 29,42±4,68*** | 27,01±3,91*** |
| Jismoniy faollik | 11,5±4,81 | 23,76±4,01* | 25,59±4,19** |
| Jami | 72,16±9,22 | 202,14±9,56*** | 207,68±10,54*** |

*Izoh: nazorat va asosiy guruhlar o‘rtasidagi farqning ishonchliligi: * — $p<0,05$; ** — $p<0,01$; *** — $p<0,001$.*

O’rganilayotgan bemorlarimizda “Shijoatlilik” shkalasida ball oshganda shijoatlilik pasayganini bildiradi, bu so’rov bo’yicha ko’rsatkichlari bo’yicha nazorat guruhida 11,37±5,31 ball bo’lgan bolsa 1-guruhda 46,79±5,31 ballni, 2-guruhda 50,27±7,04 ballni tashkil qilgan, 1 va 2 guruhda nazorat guruhga nisbatan ko’rsatkichlar 4,1 hamda 4,4 marta yuqoriligini aniqlandi. Asosiy 1-guruhdagi bemorlar abdominal semizliksiz kechgan surunkali toshsiz xoletsistit va 2-guruhdagi bemorimizda abdominal semizlik bilan kechgan surunkali toshsiz xoletsistitga uchragan bemorlarda shijoatlilik 1,1 marta pasayganini, uyqu ko’rsatkichlari bo’yicha esa asosiy guruhdagi bemorlarda uyqu buzulishi nazorat guruhga nisbatan 2,4 marta yomonlashganligi aniqlandi. Asosiy guruhdagi bemorlar o’zaro taqqoslaganda abdominal semizlikga uchragan surunkali toshsiz xoletsistit bilan kasallangan bemorlarda umumiy hayot sifatida pasayganligi aniqlandi.

URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 6 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740




***1-rasm. Guruhlar bo‘yicha tashvish va nevroz darajasi (M±m, ballar); ***—p<0,001 (nazoratga nisbatan)***

Bemorlarda tashvish darajasi (Spilberger) va nevroz darajasini aniqlash uchun (Xek-Xes) bo’yicha ham so’rovnoma o’tkazdik. Natijada Spilberger so’rovnomasi bo’yicha nazorat guruhda bemorlar shaxsiy tashvishlanish asosiy guruhga nisbatan 31% oshganligini, Xek va Xess testi bo’yicha nevroz darajasi ko’rsatkichi nazorat guruhini asosiy nisbatan 2,2 va 2,4 marta oshganligi aniqlandi.

**Xulosa**

1. Surunkali toshsiz xoletsistit patologiyasi kuzatilgan har ikki guruhdagi bemorlarda hyot sifati ko’rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darjada pastligi aniqlandi. Mazkur holat Nottingham Health Profile umumiy ballining 2,8-2,9 barobar yuqoriligida namayyon bo’ladi. Shu bilan birga, ushbu kontingetda shaxsiy tashvishlanish darajasi 22-31%, nevrotik holatlar esa 2,2-2,4 marta ortganligi qayd etildi.
2. Xastalik kechishida abdominal semizlikning mavjudligi hayot sifatining yanda pasayishiga hamda bemorlarda xavotir va nevroz belgilarining kuchayishiga olib kelishi kuzatildi. Hayot sifatini baholash shkalalari tahlil qilinganda, eng kata salbiy o’zgarishlar jismoniy faollik va irodaviy sustligi (holsizlik, tez charchash), uyqu buzilishi, og’riq sindromlari hamdaijtimoiy izolyasiya ko’rsatkichlarida yaqqol ko’zga tashlanadi. Mazkur omillar davolash strategiyasini ishlab chiqishda bemorlrning psixoemotsional statusini albatta hisobga olish va muvofiqlashtitishni taqozo etadi.
3. Abdominal semizlik hayot sifatining yomonlashuviga surunkali toshsiz xoletsistiting o’ziga qaraganda keskin ravishda ta’sir ko’rsatmasida, baribir xavotirlanish va nevrizatsiya darajasining yuqoriroq bo’lishiga zamin yaratdi. Shu nuqtai nazarda, har ikkala guruhdagi bemorlarni tibbiy reabilitatsiya qilish majmuasiga, ayniqsa vazn ortiqchaligi kuzatilgan vaziyatlarda, majburiy tartibda psixologik skrining, maqsadli psixokorreksiya hamda hayot sifatini ko’rsatkichlarini dinamik nazorat qilib borishni kiritish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar**

1. Von Elm E., Altman D.G., Egger M. et al. The Strengthening the Reporting of Observational Studies in Epidemiology (STROBE) statement: guidelines for reporting observational studies //PLoS Medicine. - 2007. - Vol. 4. — № 10. - P. e296. DOI: 10.1371/journal.pmed.0040296

2. Lacy B.E., Weiser K., De Lee R. et al. Bowel symptoms and quality of life in patients with chronic constipation and abdominal obesity //The American Journal of Gastroenterology. 2009. - Vol. 104. - № 5. — P. 1237-1245. DOI: 10.1038/ajg.2009.74

3. Stinton L.M., Shaffer E.A. Epidemiology of gallbladder disease: cholelithiasis and cancer //Gut and Liver. - 2012. - Vol. 6. - № 2. - P. 172- 187. DOI: 10.5009/gnl.2012.6.2.172

4. Lammert F., Gurusamy K., Ko C.W. et al. Gallstones // Nature Reviews Disease Primers. 2016. Vol. 2. - P. 16024. DOI: 10.1038/nrdp.2016.24

5. Di Ciaula A., Wang D.Q.-H., Portincasa P. An update on the pathogenesis of cholesterol gallstone disease // Current Opinion in Gastroenterology. - 2018. - Vol. 34. - № 2. P. 71-80.

6. Portincasa P., Di Ciaula A., Bonfrate L. et al. Therapy of gallstone disease: what it was, what it is, what it will be // World Journal of update on the pathogenesis of cholesterol gallstone disease // Current Opinion in Gastroenterology. - 2018. - Vol. 34. - № 2. P. 71-80. DOI:10.1097/MOG.0000000000000428

7. Ma R., Li W., Peng Q. et al. Association Between Gallstones and Depressive Symptoms: Results from NHANES and Mendelian Randomization Study // Psychology Research and Behavior Management. - 2024. - Vol. 17. - P. 3659-3676. DOI: 10.2147/PRBM.S477449

8. Khismatullina G.Ya., Ulyamaeva V.V., Volevach L.V., Bashirova E.S. Evaluation of the effectiveness of personality-oriented educational programs for rehabilitation of young patients with chronic non-calculous cholecystitis // Kazan Medical Journal. - 2012. - Vol. 93. - № 4. - P. 637-641. DOI: 10.17816/KMJ1560